

O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALAR

Yo'ldosheva Xadicha

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Jo'ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17731239>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligining nazariy asoslari, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ilmiy yo'nalishlari hamda til tizimining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy qatlamlariga oid nazariy muammolar keng yoritilgan. Shuningdek, kompyuter lingvistikasi, kognitiv yondashuv, funksional tilshunoslik va pragmalingvistika kabi zamonaviy ilmiy oqimlarning o'zbek tiliga tatbiqi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqola yakunida mavzu bo'yicha umumiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, nazariya, Mahmud Qashg'ariy, sotsiolingvistika, o'zbek tili, morfema, tadqiqot.

Kirish

Til — millatning quyoshi. Til bor ekan butun bir jamiyat, xalq bor. Xuddi shunday ekan, bizning tilimiz ham uzoq yillar, asrlar davomida shakllanib kelayotgan tillardan biri hisoblanadi.

“O'zbek xalqining shakllanishi va nomlanish tarixi masalasi qadimiylik jihatidan tilning ham ravnaq topganini ko'ramiz. Millat sifatida mavjud nom — o'zbek etnonimi xalqimiz rasmiy ravishda XX asrning boshlarida olingan bo'lsa-da, hozirgi O'zbekistonda hududida o'zbek millati etnik asosining shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi”. O'zbek tilshunosligi — turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, tuzilishini, qo'llanish jarayonlarini, grammatik, leksik va fonetik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganadigan mustaqil fan sohasidir.

Tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur tadqiq qilish til tizimining ichki qonuniyatlarini ochib berish, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, adabiy til me'yorlarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonida tilning ilmiy asosda ishlatilishiga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligi tarixan boy ilmiy an'anaga ega.

XX asrning boshlarida jadid olimlarining islohiy g'oyalari, 1930–1960-yillarda fonetika, leksikologiya va grammatikaga oid asosiy tadqiqotlarning paydo bo'lishi, istiqloq davridan so'ng esa yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi ushbu sohaga katta turtki berdi. Bugungi kunda tilshunoslikda strukturalizm, kognitiv lingvistika, generativ grammatika, kompyuter lingvistikasi kabi yo'nalishlarning qo'llanishi o'zbek tilining ilmiy tahlilini yanada kengaytirmoqda.

Metodologiya

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar madaniyatining buyuk arboblardan biri tilshunos, adabiyotshunos olim — Mahmud Qashg'ariy ham tilshunoslik fanining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. U turkiy tillarning grammatikasi, fonetikasi, leksikologiyasi va frazeologiyasi bo'yicha ilmiy qarashlar bildirgan. Mahmud Qashg'ariy “Devonu lug'atit-turk” asarida turkiy tillarning nazariy masalalarini ko'plab ilmiy qarashlar bilan bayon qilgan. Tilshunoslikning nazariy masalalari orasida odatdagidek grammatik ma'nolarning morfologiya, sintaksis, fonetika, frazeologiya kabi yo'nalishlarga ajratilishi tilning umumiy qonuniyatlaridan biridir. Alisher

Navoiy ham tilshunoslik nazariyasiga oid ko'plab qarashlar bildirgan bo'lib, uning asarlarida turkiy tillarning boyligi, qadimiyligi, grammatik va fonetik xususiyatlari yoritilgan. 1. O'zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

O'zbek tilshunosligining ilmiy maktab sifatida shakllanishi bir necha davrlarga bo'linadi:

1.1. Jadidchilik davri (XIX asr oxiri – XX asr boshi)

Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar tilning xalq ma'rifatchiligidagi o'rni, savodxonlik, imlo masalalarini ilmiy asosda ko'tardilar. Fitratning "O'zbek tilining sarfi", "O'zbek tilining nahvi" kabi asarlari nazariy grammatikaga asos soldi.

1.2. Sovet davri (1930–1990-yillar)

Bu davrda ilmiy tilshunoslik tizimli yo'nalishda rivojlandi. Fonetika (Sh. Rahmatullayev), morfologiya (A. G'ulomov), sintaksis (N. Mahmudov), leksikologiya (T. Mirzayev), dialektologiya (A. Kononov) kabi yo'nalishlar shakllandi.

Mazkur bosqich o'zbek tilshunosligi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1.3. Mustaqillikdan keyingi davr

1991 yildan keyingi davrda ilmiy izlanishlarning mavzusi kengaydi:

o'zbek tilining me'yoriy tizimi

terminologiyaning rivoji

pragmalingvistika

kognitiv lingvistika

kompyuter lingvistikasi va korpuslar

til madaniyati va nutq etikasi

Bu bosqichda til davlat maqomi darajasida tadqiq qilinib, milliy o'zlik, adabiy til me'yorlari va til siyosati bo'yicha ilmiy izlanishlar faollashdi.

Muhokama

XX asr boshlarida tilshunoslikda tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish — sotsiolingvistika tamoyillari shakllandi. Bu ta'limotning asoschisi F. de Sossyur bo'lib, u tilshunoslikda "sotsiologik lingvistika" nomini kiritdi. A. Meyenning ishlari sotsiologik yondashuvning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning "yozuv semantikasining o'zgarishi" nazariyasi til taraqqiyotida jamiyatning o'rni muhim ekanini ko'rsatadi. Til insonlar uchun jamiyatning asosiy mezon bo'lib, u jamiyatda kerakli muomala qurolidir. O'zbek tilshunosligi ham XX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlandi. 70–80-yillarda bu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi. 1982-yildan boshlab har yili 50 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etilgan. 1982-yillarda tilshunos olimlarning soni ham ancha oshgan — doktorlar 100 ga yaqin, nomzodlar esa 300 dan ortiq bo'lgan. Tilshunoslik nazariyasining rivojlanishida Mahmud Qashg'ariy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, hamda hozirgi zamon tilshunoslarining izlanishlari muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Tilshunoslik fanining rivojlanishi deyarli barcha fanlar bilan bog'liq. Chunki har bir fanning o'ziga xos atamaları til orqali izohlanadi. O'zbek tilshunosligining rivoji o'zbek tilining boyib borishiga, jamiyatda savodxonlikning oshishiga, til madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Bugun ham o'zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi, fonetikasi, morfologiyasi, sotsiolingvistikasi bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fazliddin Galiyevich Sharipov, Azizbek Rustamovich Mamataliev. O'zbek ilmi tilshunosligi holati. Academic Research in Educational Sciences. 2021.
2. T. G. Nazarovna. O'zbek tilshunosligi va uning rivojlanish yo'nalishlariga bir nazar. Oriental Renaissance. 2024.
3. Axmedovna, B. S. (2025, February). Ingliz tilini o'rganishda o'zaro muloqotning ahamiyati. International Educators Conference. (p. 318–325).
4. Ergashena, S. M. (2025, February). Ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda xorijiy tajribalar. International Educators Conference. (p. 358–365).
5. Normurodova, A. M. (2025, February). Tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik va ingliz tilining ahamiyati. International Educators Conference. (p. 310–317).
6. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'zbekiston va xorijiy tillarning ahamiyati. International Educators Conference. (p. 326–333).
7. Ergashena, S. M. (2025, February). Ingliz tili darslarining ahamiyati. International Educators Conference. (p. 350–357).